



FIRIBGARLIK JINOYAT VA KIBERJINOYATLARGA QARSHI KURASH AHOLIDA BU JINOYAT XULQ-ATVORGA QARSHI IMMUNITET SHAKILANTIRISH

Ibragimov Azamat Maxsetovich

Qaraqalpog'iston Respublikasi IIV TKX JQB xodimi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18029110>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-dekabr 2025 yil
Ma'qullandi: 20-dekabr 2025 yil
Nashr qilindi: 23-dekabr 2025 yil

KEYWORDS

*Firibgarlik jinoyat.
kiberjinoyatlarga qarshi kurash
.kiberjinoyat turlari. jinoyatning
xulq-atvor*

ABSTRACT

Ijtimoiy turmushda insonlar o'zaro bir-birlari bilan muomala qilish ekan, ular orasida turli xil munosabatlar o'rnatiladi. Ayrimlar sof, halol yo'l bilan, o'zgaralar haqidan qo'rqqan holda bu munosabatni o'rnatsa, ayrimlar insonlarning soddaligi, ishonuvchanligini suiiste'mol qiladi

Ijtimoiy turmushda insonlar o'zaro bir-birlari bilan muomala qilish ekan, ular orasida turli xil munosabatlar o'rnatiladi. Ayrimlar sof, halol yo'l bilan, o'zgaralar haqidan qo'rqqan holda bu munosabatni o'rnatsa, ayrimlar insonlarning soddaligi, ishonuvchanligini suiiste'mol qiladi. Bunday toifa shaxslarni o'z nomi bilan firibgar va tovlamachi deb aytishlari ham bejizga emas. Ta'kidlash joizki, respublikamizda sodir etilayotgan jami jinoyatlar orasida firibgarlik jinoyatlarining salmog'i yildan-yilga o'sib borishi kuzatilmoqda. Tahlillarga ko'ra, 2016 yilda firibgarlik jinoyati jami sodir etilgan jinoyatlarning 11,7 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2017 yilda bu ko'rsatkich 13,1 foizni tashkil qilgan. 2018 yilning 12 oyi davomida respublika bo'yicha sodir etilgan firibgarlik jinoyati(6483) 2017 yilning shu davriga nisbatan 32,78 foizga kamaygan bo'lsada, umumiy jinoyatlarda xissasi 15,1 foizni tashkil etmoqda. Firibgarlik jinoyatining salmoqli qismi Toshkent shahri (1296 ta yoki 20%) Farg'ona viloyati (840ta yoki 13%), Samarqand (632 ta yoki 9,7) va Toshkent (557 ta yoki 8,6) viloyatlari hisobiga to'g'ri kelgan. Eng achirnarlisi, 2018 yilda sodir etilgan firibgarlik jinoyatlarining 7,4% (478ta) fosh etilmasdan qolgan.

Firibgarlik jinoyatlarining kamaytirish masalasi HMQOlar oldida turgan eng muhim va ustuvor vazifalaridan bo'lib, mazkur vazifalarni amalga oshirish samaradorligini ta'minlash ko'proq ogoh etuvchi profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishni hamda ularni amalga oshirishda qo'llanilayotgan firibgarlik jinoyatining barvaqt profilaktikasi mexanizmini muntazam ravishda takomillashtirib borishni taqazo etadi. Firibgarlik jinoyatining barvaqt profilaktikasi samaradorligini ta'minlash uchun eng avvalo mazkur turdagi jinoyatlarning sodir etilish sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, har qanday voqea, hodisa, jarayon yoki mavjudlikning mohiyatini o'rganish uning kelib chiqishi yoki sodir bo'lishiga turtki bergan sabablar, imkoniyat yaratgan shart-sharoitlar haqida aniq ma'lumotga ega bo'lishni talab etadi.

Firibgarlikning turlari o'zgargan bo'lsa-da, asosiy prinsiplari o'zgarmagan. Odamlarni aldash, ularning ishonchini qozonish va moliyaviy zarar keltirish kabi shakllarda namoyon bo'lyapti. Bu ishlar Hegestratosning kemani qasddan cho'ktirib, qarz pulini o'zlashtirishga urinishidan boshlangan. Miloddan avvalgi 300-yillarda Yunonistonda yunon dengiz savdogari Hegestratos o'z kemasini sug'urta qilib, qarz olgan. Qarz kema yoki yuk zarar ko'rsa, qaytarilmaslik sharti bilan olinadi. Hegestratos bu tizimdan ayyorona foydalanib, kemasini qasddan cho'ktirib, qarz pulini o'zlashtirishni rejalashtiradi. Ammo u muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Kema suvga cho'kib, Hegestratos vafot etadi. Bu voqea esa ilk sug'urta firibgarligi sifatida tarixda qayd etilgan. Keyinchalik XIX asrda firibgarlikning "Ispan mahbusining maktubi" nomli shakli tarqaldi. Bu usulda firibgarlar o'zlarini qamoqda ushlab turilgan boy kishilar deb ko'rsatib, odamlarni ularni qutqarish uchun pul yuborishga ko'ndirgan. Ushbu usul hozirgi "Nigeriya shahzodasi" nomli aldov sxemasi bilan o'xshashlikka ega bo'lib, ko'pincha elektron pochta orqali amalga oshiriladi va o'sha davrdan hozirgacha saqlanib kelgan firibgarlik turlaridan biridir. XX asrda esa bu turdagi firibgarliklar elektron pochta va telefon orqali tarqala boshladi. Eng mashhur turlardan biri bu hozirgi "Nigeriya shahzodasi" yoki "419 firibgarligi" deb ataladi. Bu firibgarlikda firibgarlar o'zlarini yuqori darajadagi amaldor yoki boy kishilar sifatida tanishtirib, potensial qurbonlardan katta miqdorda pul talab qiladi, shuningdek, ularni katta merosni olish uchun yordam berishiga ishontiradi. Bu firibgarlik turiga har doim ehtiyotkorlik bilan qarash lozim, chunki ko'plab odamlar, ayniqsa internet va telefon orqali yuborilgan soxta xabarlar orqali aldangan. Sizga ham hech bo'lmasa bir marotaba chet eldagi uzoq qarindoshingiz boyligini aynan siz uchun tashlab ketgani haqida yozishgan bo'lishi kerak. Bundan tashqari, vaqt o'tishi bilan boshqa turdagi firibgarliklar ham rivojlangan. Misol uchun, XIX asrda "phishing" va "spoofing" kabi texnik firibgarlik usullari keng tarqaldi. Ushbu usullarda firibgarlar, asosan, onlayn bank tizimlari yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali odamlarning shaxsiy ma'lumotlarini olishga harakat qiladi. Bu usullar ham vaqt o'tgan sayin murakkablashgan va texnologiyalar yordamida yanada ko'p odamlarni aldashga muvaffaq bo'lgan. Ushbu tarixiy ma'lumotlar firibgarlikning qadimiy davrlardan beri mavjud ekanligini va turli davrlarda yangi shakllarda o'zgarib borganini ko'rsatadi. Biroq tarixan o'rganiladigan eng muhim jihat shundaki, firibgarlikning asosiy tamoyillari o'zgarishsiz qolgan: o'zini ishonchli va xolis ko'rsatish, odamlarning eng yaxshi his-tuyg'ularini ekspluatatsiya qilish va ular orqali moliyaviy manfaat olish. Hozirda bu turdagi firibgarliklar nafaqat texnologiya, balki psixologik manipulyatsiyalar orqali ham yanada samarali tarzda amalga oshirilmoqda.

Kiberjinoyatlar statistikasi

Kiberjinoyatlar bugungi kunda dunyo miqyosida tobora kengayib borayotgan va tez rivojlanayotgan tahdid sifatida e'tirof etilmoqda. Turli mamlakatlar va yillar kesimida olib borilgan statistik tadqiqotlar kiberjinoyatlarning o'sishini ko'rsatmoqda. Quyida ba'zi asosiy statistikalar, keng tarqalgan hujum turlari va ular ortidagi sabablarga to'xtalamiz.

- 2020-2021 yillar: 2020 yilda kiberjinoyatlar soni 2019 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Dunyo bo'ylab har kuni 30 milliondan ortiq yangi zararli dasturlar tarqatilgan.
- 2022 yilda kiberjinoyatlar butun dunyo bo'yicha taxminan 6 trln dollar zarar keltirgan. (Cybersecurity Ventures)
- 2023 yilda global kiberjinoyatlar bo'yicha iqtisodiy zarar har yilgi 10 trln dollarga yetishi kutilgan.

Kiberjinoyatlarning sabablari

Kiberjinoyatlar o'sishining bir nechta asosiy sabablari mavjud bo'lib, bulardan biri ijtimoiy tarmoqlar kiberjinoyatlarga qarshi himoyasizligidir. Dunyo bo'ylab deyarli 4,8 milliard odam bir yoki bir nechta ijtimoiy media platformalaridan foydalanadi, bu butun dunyo aholisining 59% dan sal ko'prog'ini tashkil qiladi. Kiberjinoyatlarning o'sishiga qarshi kurashishda mamlakatda xavfsizlik choralari kuchaytirish va axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini oshirish muhim bo'lib qolmoqda. Misol uchun, IIV tomonidan "Kiberyordamchi" platformasi yaratilgan bo'lib, u aholining kiberxavfsizlik savodxonligini oshirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarida qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, chet el tajribasini o'rganish asosida aholiga internetda xavfsiz foydalanishni targ'ib qilish va profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish samaradorligi ko'zda tutilgan. Kiberjinoyatlar butun dunyo bo'ylab jiddiy xavf tug'dirish bilan birga, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy salbiy ta'sirlarni ham keltirib chiqarmoqda. Statistika va tahlillar shuni ko'rsatadiki, kiberjinoyatlar faqatgina o'sib bormoqda va ularning turlari ham har yil rivojlanmoqda. Shu sababli kiberxavfsizlikni kuchaytirish, foydalanuvchilarni ogoh qilish va xavfsizlik choralari yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Firibgarlik va kiberjinoyatlarga qarshi kurash

O'zbekistonda kiberjinoyatlarga qarshi qonun joriy etilgan bo'lib, bu borada asosan 2022 yilda qabul qilingan "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonun asosiy rol o'ynaydi. Mazkur qonun davlat tashkilotlari va xususiy sektor uchun kiberxavfsizlikni ta'minlash, kibertahdidlarga javob qaytarish va kiberhujumlardan himoyalanih bo'yicha majburiyatlarni belgilaydi. Misol uchun, davlat organlari va kompaniyalar sertifikatlashtirilgan dasturiy ta'minotlardan foydalanishga majburdirlar, shuningdek, axborot tizimlarining zaxira nusxalarini muntazam saqlash talabi qo'yiladi. Kiberxavfsizlik ekspertizalari ham o'tkazilib, muhim infratuzilmalar kiberxavfsizlik talablariga rioya qilish bo'yicha tekshiruvlardan o'tkaziladi. Qonunchilikda so'nggi yillarda keng tarqalgan jinoyat turlari, jumladan, soxta biometrik ma'lumotlardan foydalangan holda amalga oshiriladigan kibertovlamachilik va noqonuniy kriptoaktiv aylanishlariga qarshi javobgarlik choralari kuchaytirilgan. Shu bilan birga, kiberjinoyatlar bo'yicha xalqaro hamkorlik masalalariga ham e'tibor qaratilib, xalqaro shartnomalar asosida chet davlatlarga axborot taqdim etish va xalqaro kiber sohadagi jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik qilish imkoniyatlari belgilangan. Kiberjinoyatlarning yillar davomida rivojlanishini tahlil qilar ekanmiz, oxirgi yillarda ularning sezilarli darajada o'sishi kuzatilmoqda. Bu holat kiberhujum usullarining takomillashishi va raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi bilan bog'liqdir. Shu sharoitda odamlar kiberjinoyatga nisbatan hushyor bo'lishlari lozim. Masalan, noma'lum raqamlardan qo'ng'iroq qilib, "bankdan bog'lanyapmiz, sizning nomingizdan kredit rasmiylashtirilmoqda, telefoningizga kelgan SMS-kodni ayting", deyilgan taqdirda, bunday so'zlarga ishonmaslik, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali yuborilgan noma'lum havolalarga kirmaslik talab etiladi. Bundan tashqari, yuqorida sanab o'tilgan firibgarlikning boshqa usullaridan ham himoyalanih choralari ko'rish muhimdir. Xavfsizlikni ta'minlash uchun shaxsiy ma'lumotlarni boshqalarga oshkor qilmaslik, kuchli parollar ishlatish va himoya dasturlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Yuqoridagi omillarni bartaraf etmay turib biz jamiyatda uchraydigan salbiy holatlar, shu jumladan firibgarlik jinoyatlarini oldini olishda natijalarga erishib bo'lmasligini anglashimiz lozim. Shu boisdan, bugungi kunda mamalakatimizda turli sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarda aholining

kam ta'minlangan qatlamini ijtimoiy qo'llab quvvatlash, yangi ishchi o'rinlarini yaratish, "uyushmagan yoshlar"ning mavjud muammolarini aniqlash va bartaraf etish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish borasida ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirildi va ular davom ettrilmoqda.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Ismailov I., Mirazov D. M., Muxtorov J. S. va boshq. Huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish: O'quv qo'llanma .- T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017 B-5.
2. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi ma'lumoti
3. O'zbekiston Respublikasi IIV Tergov departamenti ma'lumotiz

